



AMIR TEMUR'S MILITARY TACTICS THAT SHOCKED THE WORLD

Tashkent University of Applied Sciences, History 2nd year student

Fayzullajonova Rukhshona Mansur qizi

rukshonafayzullajonova@gmail.com

Annotation

This article is about the military campaigns and unique tactics of Sahibkiran Amir Temur. Basically, this article reveals the essence of the Battle of Kunduz, the campaign to India and the most famous Battle of Ankara.

Keywords: cavalry, burong'or, juvong'or, hiruvul, ilg'or, chag'davul, ra'dandoz.

AMIR TEMURNING DUNYONI ZARB ETGAN HARBIY TAKTIKALAR

Toshkent Amaliy fanlar universiteti Tarix 2-bosqich

talabasi **Fayzullajonova Rukhshona Mansur qizi**

ruxshonafayzullajonova@gmail.com

Anatosiya

Bu maqola Sohibqiron Amir Temurning harbiy yurishlari va o'ziga xos taktikalari haqida. Asosan bu maqolada Qunduzcha jangi, Hindistonga qilingan yurish va eng mashhur bo'lgan Anqara jangining mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: otliqlar, burong'or, juvong'or, hirovul, ilg'or, chag'davul, ra'dandozlar.

Аннотация

В этой статье речь идет о военных походах и уникальной тактике Амира Темура. В этой статье в основном объясняется суть битвы при Кундузе, похода в Индию и наиболее известного сражения — битвы при Анкаре.

Ключевые слова: конница, буронгор, джувонгор, хирувул, илгор, чаг'давул, радандоз.

Amir Temur hukmronlik qilgan davr O'zbekiston tarixida va balki jahon tarixida ham chuqur iz qoldirgan. Bu davrda mamlakat mo'g'ul bosqinchilaridan ozod qilinib, yirik markazlashgan davlat - ulkan saltanat barpo etishga sabab bo'ldi. Amir Temur o'sha davrdagi eng jangovar armiya tuzishga mavaffaq bo'ldi. Harbiy strategiyani rivojlantirdi va shu sababli katta g'alabalarni qo'lga kiritdi. Amir Temur davrida mamlakatning nafaqat siyosiy qudratga, balki hokimiyatning mustahkam harbiy himoyaga ega ekanligi iqtisodiy va madaniy hayotning gullab yashnashiga, tinch savdo va diplomatik aloqalarning rivojlanishiga tayanch bo'ldi.

Amir Temur yoshligidan jang mahoratini o'rgangan va bu qobiliyatlari ulg'aygan sari kuchayib borgan. O'z viloyatini ko'chmanchi zodagonlarning talan-tarajidan himoya qilish maqsadida yosh Temur mo'g'ul xonlari xizmatiga kirib, Tug'luq Temur yorlig'i bilan viloyat dorug'asi etib tayinlanadi. Mog'ul oilasiga mansub Uljoy Turkon Og'oga uylanib "xon kuyovi" unvonini olish orqali viloyatning qonuniy hokimiyatiga ega bo'ldi. 1370-yil Amir Husayn qo'shinlarini yengib, chig'atoy boshqaruviga barham bergach, qurultoyda Movarounnahr hukumdori etib tayinladi. Mazkazlashgan davlat barpo etgandan so'ng, eng avvalo uning harbiy salohiyatini kuchaytirishga katta e'tibor qaratadi. Shu maqsadda

muntazam qo'shin tuzishga, unga yangiliklar kiritishga harakat qildi. Amir Temur sharqda birinchilardan bo'lib o'z armiyasiga o't ochar qurolni olib kirdi. U jahon harbiy san'ati tarixida birinchilardan bo'lib qo'shinni jang maydonida yetti qo'lga bo'lib joylashtirish tartibini tashkil qildi[1]. Uning armiyasida ayollardan tuzilgan bo'linmalar bo'lib, ular jang chog'ida erkaklar bilan bir safda turgan, qahramonlik va matonat namunalarini ko'rsatgan[2].

Amir Temur tuzgan harbiy qo'shinida muntazam armiyaga xos bo'lgan ko'pgina belgilar namoyon edi: xususan, qo'shin son jihatdan aniq va puxta tashkil qilingan, uning jangovar tartibi jangdan-jangga takomillashtirilib borilgan, armiya o'z zamonasining ilg'or qurol va texnikasi bilan qurollangan, aynan bir turdagi qurol-yarog', aslaha-anjom bilan ta'minlangan qismlar bir-biridan kiyim-boshi, tutgan bayroq yoki tug'i orqali ham farqlangan[3]. Bunday ajralib turish jang paytida qo'shinni boshqarishda juda qo'l kelgan. Qo'shinning kiyim, polklarga taqsimlanishi, har biri uchun ma'lum bir turdagi askariy kiyimlarning joriy etilishi kabi yangiliklar keyinchalik yevropalik xalqlar tomonidan ham o'zlashtirildi. Biroq, asosiy rol o'tliq qo'shin o'ynagan. Ular tez harakat qiluvchi safarbar yengil suvoriylarga va og'ir qurolli otliqlarga bo'lingan. Og'ir qurollangan otliq qo'shinning vazifasi dushmanga hal qiluvchi zarbani berishdan iborat edi. Agar mo'g'ullarda og'ir qurolli otliqlar oxirgi zaxira sifatida va xonni qo'riqlash maqsadida foydalanilgan bo'lsa, Amir Temur jangda ularning rolini yanada ortirdi. Og'ir qurollangan suvoriylarning katta qismini sara otliq qo'shinlar tashkil etgan. Amir Temur qo'shinlarida xos soqchilar va gvardiya ham mavjud bo'lgan. Temur chegaralardan o'tib kelgan kishilar, sayyohlar, savdogarlar, darveshlar va boshqa odamlardan o'z dushmanlarining maqsadi hamda kuchi, saroy hayoti mahalliy xususiyarlari va shaharlar joylashishi haqida ma'lumotlar olib turgan.

Amir Temur Chingizxonning harbiy san'atidan bir muncha foydalangan. Uning lashkarlari uch qismdan iborat edi. Muarrix Abdurazzoq Samarqandiyning xabar berishicha, u mo'g'ulcha an'analarning ko'r-ko'rona taqlidchisi emas edi. Nizomiddin Shomiy va Aliyazdi uning harbiy san'atida zukko bo'lganini qayd etadilar. Uning davrida eng ma'sul topshiriqlarni tovachilar bajargan. Temur har bir yurishi oldidan yangitdan qo'shin to'plash uchun viloyat va urug'larga tovachilarni yuborgan. Ular viloyat amirlariga Temur farmoyishini oqizmay-tomizmay yetkazar edi. Bu tartib Temurga qadar mavjud emas edi. Temurning dam-badam qilgan yurishlari qo'shinini takomilga yetakladi va urush olib borishga yangi jangovar usullarini qo'llash imkonini yaratdi.

Amir Temurning 1391-yil To'xtamishxon bilan Qunduzchada bo'lgan jangda u to'qnashuv oldidan qo'shinni mutlaq yangi usuldan joylashtiradi. Bu janga Sohibqiron o'z qo'shinlarini yetti bo'lakka – qo'lga ajratadi. Jang oldidan qo'shin markaz, (qo'l yoki qalb), o'ng (o'ng qo'l – o'zbekcha, barong'or – mo'g'ulcha, dastirast – forscha) va chap (so'l qo'l – o'zbekcha, javang'or – mo'g'ulcha, dastirast – forscha) qanotlardan tarkib topgan. Ularning har birida ilg'or-hirovul, har bir qanotda qanot muhofazasi bo'laklari bo'lib, ularning vazifasi dushmanning yon tomonidan hujum qilishga yo'l qo'ymaslik edi[4]. O'z – o'zidan ma'lumki, jangda markaziy bo'lak katta ahamiyat kasb etgan, uning ortidan zaxira qo'shin va bosh qo'mondan qarorgohi joylashtirilgan. Temur qo'lga kiritgan g'alabalarda qo'shindagi ayg'oqchilik va dushman kirdikorlarini o'rganuvchi maxsus bo'linma alohida o'rin tutgan. Shomiy o'z asarida Temur askarlaridan shayx Dovud va Muboshshirning 1391 yili To'xtamishga qarshi kurashda qahramonlik ko'rsatgani, ular qo'lga tushirgan bir talay asirlar bebaxo ma'lumotlar bergani haqida hikoya qiladi. 1395 yil bahorida Temur Shimoliy Kavkaz, Terek daryosi bo'yida To'xtamishxonga qarshi yurish boshlaydi. Bu yurish juda ham

mashaqqatli kechgan bo'lib, har ikki tomonning kuchli qo'shini va sarkardalarning mahoratini ko'rishimiz mumkin. To'xtamishxon Amir Temurning taktikasidan foydalangan holda o'z qo'shinlarini yetti qo'lga bo'lgan edi. Terek daryosi bo'yida Amir Temur qarorgoh qurdiradi va barcha ayollar boshlariga dubulg'a kiyib otlarga o'tirishlarini buyuradi. Otlarga o'tirgan ayollar qarorgoh atrofida ot choptiradilar va bu vaziyatdan foydalanib Amir Temur qo'shinlari daryoning narigi tomoniga o'tib To'xtamishga zarba berishga tayyorlanishadi. Ular o'rtasidagi jang uch kun davom etib, birinchi va ikkinchi kunlar To'xtamish Amir Temurning qo'shinlarining ilg'or qismini zaiflashtiradi. Bunday paytda Amir Temur qiyin vaziyatda qolib ketadi chunki To'xtamish qo'shinlari uni o'rab olgan edi. Bundan so'ng Sayyid Baraka To'xtamish qo'shinlariga otdan tushib, kamondan o'q otishlarini buyuradi. Sayyid Barakaning bu ishi Amir Temurga ancha yordam beradi. Uchinchi kuni Amir Temurning o'zi To'xtamishga qarshi zarba berib To'xtamishni chekinishga majbur qiladi. Jang Temurning to'la ustunligida o'tadi. 1395 yilning qahraton qishida Sohirqiron armiyasi Oltin O'rdaning yirik shaharlari – Xojitaxon hamda Saroy al-Jadid tarafga qarab safarga o'tlanadi. Ikkala shahar ham aytarli qarshiliksiz taslim bo'lishiga qaramay, batamom talanadi va yoqib yuboriladi. 1396 yilning bahorida Temurbekning g'olib armiyasi Darbanddan o'tib, Ozarbayjon tomon yuzlanadi. Shunday qilib, bir yil, ya'ni 1395 yilning kuzidan 1396 yilning bahoriga qadar o'tgan vaqt ichida Sohirqiron tomonidan «Oltin O'rdaning qudratini va uning ulug' davlatchilik siyosatini qayta tiklash» maqsadida siyosiy maydonga chiqqan To'xtamishxonning mavjud iqtisodiy, ijtimoiy va harbiy imkoniyatlari barbod etildi. Temurbek bergan bu kuchli zarbadan so'ng Oltin O'rdaning avvalgi qudrati va shukronasi qayta tiklanishga imkon topmadi[5].

1370-yilga kelib Amir Temur Mavoraunnahrni qaytarib olganidan so'ng, bu hududlarda u binolar, masjidlar, madrasalar qurdira boshlaydi. Bu inshootlarni qurish uchun juda ko'p mablag' va aqlli ustalar, olimlar kerak bo'lgan. Amir Temur ularni o'zi bosib olgan hududlardan Samarqandga olib kelgan.

1398 yilda Amir Temur Hindistonga 92 ming lashkar bilan yo'l oldi. Mashaqqat bilan u yerga yetib borgach rabiul oyining birinchi kuni, ya'ni 11 dekabrda Sohirqiron Amir Sulaymonshoh bahodir va Amir Jahon-shoh bahodirlarni Dehli shahrining janubida joylashgan yurtlarni bosib olish uchun jo'natadi. O'zi esa yetti yuzta-cha zirihpushlar hamrohligida Jahonnumoy atroflarini sinchiklab ko'zdan kechiradi, joyning tuzilishiga, u yerdagi ob'ektlarga diqqat-e'tiborni qaratadi. Kuzatuv nihoyasiga yetgach, Temur bo'lajak jang maydonining o'rnini belgilaydi. Shu orada Malluxon taxminan to'rt ming otliq va besh ming piyoda askarlar hamda yigirmata fil bilan qal'adan tashqari chiqib Temur qo'shiniga qarshi kela boshlaydi. Jaun daryosi yoqasida turgan Sevinchak bahodir va Sayyid Xo'ja Mubashshir boshchiligidagi uch yuz kishidan iborat guruhni hindlar o'qqa tutadi. Ko'mak uchun yetib kelgan ikki katta madadkor qism Malluxon lashkariga selday yopirilib dastlabki hujumda g'animni Dehli tomon yuz burishga majbur qiladi. Tartibsiz chekinayotgan raqibini tezkorlik bilan ta'qib etgan Sohirqiron o'zining osmono'par saropardasini 1398 yilning 11 dekabrda Dehli shahri bo'sag'asidagi mavzeda tikadi. 13 dekabr kuni Temurbek Luni qal'asining qirg'og'ida lashkargo'h qurishni hukm qiladi. Sohirqironning qarorgohida mashvarat bo'lib o'tadi. Harbiy kengashda yurishda ishtirok etayotgan amirzodalar, ulug' amirlar, qo'shin, tuman sardorlari hamda g'ulomlardan tashkil qilingan o'n ming kishidan iborat oliy bosh qo'mondonning shaxsiy gvardiyasi hisoblanmish sonsiz ishtirok etish sharafiga muyassar bo'ladi. Temurbek mashvaratda kutilayotgan dahshatli jangni olib borish, g'anim bilan jangga

kirish, uning saflarini orqa tomondan aylanib o'tib buzish, savash girdobidan qanday chiqish tartib-qoidalarini bamaylixotir, aniq va ravshan ifoda etadi. Harbiy harakatlarning muqaddimasi va yakunining qay maromda borishi ishonch bilan ta'riflanadi. Xiravul, barong'ar, juvong'ar, qo'l, chag'davul va sonsizning janggohdagi o'rni aniq ko'rsatiladi. Bu qismlarning jang chog'ida amalga oshiradigan vazifalari, dushman xamlasini qaytarish va qayta hujumga o'tish usullari belgilandi. Sohibqiron bayon etayotgan fikr-mulohazalaridan uning bo'lajak jangda g'alaba qozonishiga iymoni komilligini sezib turgan mashvarat ahli harb ishidagi bor bilim va tajribalarini ishga solib, zafar bayrog'ining yana-da mahobatliroq hilpirashiga o'z hissalarini qo'shishga yakdillik bilan ahd qiladilar. 17 dekabr kuni Pir Muhammad bahodir mirzo, Sulaymonshoh bahodir va boshqa amirlar, juvanguardan Sulton Husayn bahodir mirzo, Xalil sulton bahodir mirzo, Jahonshoh bahodir va boshqa sarkardalar, qiravuldan Rustam bahodir mirzo, Shayx Nuriddin, Shohmalik, Allohod singari amir va beklar o'rin olgandi. Sohibqiron o'z shaxsiy gvardiyasi - sonsiz, ko'mak uchun muljalangan qismlar bilan qo'lda joylashadi.

Ro'parada shahzoda Sulton Mahmud, Malluxon va boshqa bir qancha hind sarkardalari rahnamoligida o'n ming kishilik suvoriy, yigirma ming sara piyoda va bir yuz yigirma jangovar fillardan tarkib topgan qo'shin ham safga tizilib, osmoniy kumak va rabboniyniing ma'addiga suyanib qo'lda lashkar tortish qoidasi va qo'shin bezatish uslubiga binoan asbob-aslahalarini tartibga solib janga shaylanadi. Qo'shin safi oldida harakat qiluvchi tog'monand haybatli fillarning hartumlari bir-biriga bog'langan, fillar ustiga dumaloq kajavalar o'rnatilgan, ularda bir nechta tirandozlar joylashtirilgandi. Fillar qatori yonidan to'p otuvchilar, ya'ni ra'dandozlar o'rin oladi[6].

Shu paytgacha ko'p janglarni ko'rgan barchasida g'alaba sururini to'ygan amir lashkarlari hali bu kabi bahaybat fillarni ko'rmagan edilar. Fillarga yaqinlashgan sari otlar ham hurkib qochishlari natijasida lashkar tartibining buzilishiga ham olib keldi. Amir Temur fillardan qutilish uchun turli taktikalarni qo'llaydi. Qo'shinni chekinayotgandek ko'rsatib, yerga nayzalarni qadab chiqadilar va fillar orqaga chekinishga majbur bo'ladi. Orqaga chekinayotgan fillar o'z lashkarlarini yanchib, tartibsizlik keltirib chiqaradilar. Bu paytda fillarni yana bir o'ziga xos xiyla kutib turgan edi. Sohibqiron tuyalarning ustiga paxta qo'yib, ustidan yog' to'kishlarini buyuradi va ularni yondirib fillarga qarshi ishlatadi. Shu bilan fillar mag'lub etilib, amir g'alaba qozonadi.

1399 yil Sohibqiron muzaffar qo'shinga Hindiston yurishi nihoyasiga yetganligi, yirik janglarda ulkan g'alabalar qo'lga kiritilganligi, ko'pdan-ko'p qal'a, hisor, shahar, viloyat va yurtlar zabt etilganligi, behisob mol-u dunyo, zebu ziynat, asir-u tutqunlar o'lja qilinganligi, endi Vatanga, dorussaltana Samarqandga qaytish vaqti kelganligi to'g'risida farmoni oliyni e'lon qiladi.

Yana bir mashhur yurishlaridan biri Sulton Boyazid Yildirim bilan bo'lgan Anqara jangi hisoblanadi. Boyazid Yildirim ham o'z davrining eng buyuk hukumdorlaridan bo'lib, Yevropa davlatlariga xavf solib turgan edi. Amir Temur va Boyazid o'rtasida ko'plab nomalar almashilgan bo'lib, ularda Boyazidning Sohibqironga nisbatan xurmatsizligi aks etgan edi. Shunday bo'lsa ham Temur Boyazidga nisbatan adolat bilan munosabat olib bordi. Lekin buni Boyazid qo'rqqolikka yo'yib ikki o'rtada fojia yuz berdi. Amir Temur va Boyazid Yildirim o'rtasida kechgan jang tarixga "Anqara jangi" nomi bilan kirgan bo'lib, bu voqea 1402 yilning 20 iyulida boshlangan. Tarixiy yozma manbalarda, ikki o'rtadagi kuchlar nisbati to'g'risida turlicha ma'lumotlar uchraydi. Ba'zi tarixchilar, Amir Temurning g'alabasini kamsitish

maqsadida Sohibqironning lashkarlari sonini jami bo'lib 800 ming, Boyazid Yildirimning qo'shini sonini 200-250 ming deb ta'kidlashadi. Ko'plab tarixiy adabiyotlarda esa "Anqara jangi"da har ikki tomondan 360 ming qo'shin qatnashgani keltiriladi. Bu adabiyotlarda Amir Temur tomonida 200 minglik qo'shin, Boyazid Yildirim tomonida esa 160 minglik cherik qatnashgani haqida ma'lumot beriladi. Sohibqiron har bir urush oldidan raqibini sinchiklab o'rganib, aniq taktika asosida jang olib borgan. U Anqara jangida ham shunday qildi. Amir Temur hal qiluvchi jang oldidan harbiy xiyla ishlatib, Boyazidning lashkari safidagi qora totor jangchilariga maxfiy tarzda maktub yozadi va ularni jang vaqtida o'z tarafiga o'tishini taklif etadi. Bu taklifga qora totor jangchilari rozi bo'lishadi. Bundan tashqari, Amir Temur Anqaradagi barcha quduqlarni yoqtirib ularni zaharlashlarini buyuradi.

Amir Temur qo'shinning oldi qatoriga Hindistondan keltirilgan 32 ta jangovar fillarni joylashtirib, o'ng qanotga o'g'li Mironshohni, chap qanotga esa Shoxruh Mirzoni mas'ul etib tayinlaydi. Sohibqironning o'zi esa, sevimli nabirasi Muhammad Sulton bilan birgalikda markazda turib, qo'shinga qo'mondonlik qiladi. Jangda Boyazid Yildirimning otliq qo'shini Amir Temurning o'ng qanotini markazdan ajratib qo'yish maqsadida hujumga o'tadi. Ammo bu hujumni Mironshoh qaytarishga muvaffaq bo'ladi. Serbiyadan kelgan Boyazidning qaynisi knyaz Lazarevich otliq askarlar bilan Shoxruh Mirzo boshqarayotgan chap qanotga hujum qiladi. Shoxruh Mirzo harbiy xiyla ishlatib, o'zini ortga chekinganday qilib, ortidan kelayotgan serblarni qurshab oladi[7]. Shu vaqtda Amir Temur tarafiga o'tib ketgan qora totorlar Boyazid Yildirimning chap qanotiga hujum qilib, qurshab olishadi. Yanicharlarning mardonavor jang olib borishi Boyazid qo'shinining ahvolini biroz bo'lsa-da yaxshilaydi. Ammo ikki qanotning qurshovga tushib qolishi sababli Boyazid qo'shinining markazi ochilib qoladi. Shu vaqtda Amir Temur Hindistondan olib kelingan 32 ta filni jang markaziga tashlaydi. Bahaybat jangovar fillar markazdagi Boyazid qo'shinini yanchib tashlab, jang masalasini hal etadi. Ahvol og'irligini ko'rgan Usmonli beklari Boyazidga chekinishni tavsiya qilishganida u bunga ko'nmasdan yanicharlar bilan urushni davom ettiradi. Ammo otasining yengilayotganini ko'rgan shahzoda Sulaymon Chalabiy otasini tashlab poytaxt Bursaga qochadi. Akasining ortidan shahzoda Muhammad va Iso Chalabiylar ham otalarini tashlab qochishadi. Urushda Boyazidning mag'lubiyatga uchrangani aniq bo'lib ulgurgan edi. Faqatgina markazda Boyazid Yildirimning o'zi yanicharlar bilan qattiq qarshilik qilib, taslim bo'lishni istamas edi. Tez orada Amir Temur lashkarlari Boyazidni qurshab olib, yanicharlarni bitta qo'ymay qirib tashlashdi. Qo'lga olingan Boyazidni Sohibqironning huzuriga olib kelishganida, Amir Temur Boyazidni o'rnidan turib qarshi olar ekan, Boyazidga zimdan nazar solib kulib yuboradi. Ushbu kulgudan jahli chiqqan Boyazid Sohibqironga mag'lubning ustidan kulish odobsizlik ekanligini aytganida, Amir Temur "Alloh bu dunyoni ko'r bilan cho'loqqa qoldirganligi uchun kulyapman", deb javob beradi.

Shunday qilib "Anqara jangi" Sohibqironning g'alabasi bilan tugadi. Bunday yorqin g'alabadan so'ng Amir Temur o'zining azaliy odatiga ko'ra o'z jangchilariga katta ziyofat berib, sovg'a-salomlar va in'omlar ulashadi. Anqarada bir hafta turgach, Boyazidni olib Kyutaxya shahriga yo'l oladi. Bu shaharda bir oy turgach, Amir Temur Boyazidning to'ng'ich o'g'li shahzoda Sulaymonga maktub yo'llab, uni o'z huzuriga chorlaydi. Shahzoda Sulaymon bu taklifga rozi bo'lib Sohibqironning huzuriga kelib, o'z itoatini bildiradi. Amir Temur Onado'luda sakkiz oy turib, bu orada Boyazid Yildirim egallay olmagan Izmir qalasini 15 kunda zabt etib, Boyazidni lol qoldiradi. Kutilmaganda Boyazid bot kasalligiga duchor bo'lib qoladi. Sohibqiron sultonni Oq qal'aga davolanish uchun jo'natib yuboradi. Ammo 1403 yil 8

mart kuni sulton Boyazid vafot etadi. Amir Temur shahzoda Musoni huzuriga chaqirib “Otangizning muqaddas xokini sultonlarga xos izzat-ikrom bilan Bursaga olib borib, tirikligida o‘zi qurdirib qo‘ygan imoratga dafn eting”, deb buyuradi. Boyazidning to‘ng‘ich o‘g‘li Sulaymon Chalabiyni esa turklarning Yevropadagi viloyatlariga hokim etib tayinlaydi. Shundan so‘ng Amir Temur 1404 yilning may oyida Samarqand tomon yo‘lga otlanib, iyulda poytaxtga yetib kelib, Xitoy safariga tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi. Lekin Xitoyga yurishi paytida yo‘lda vafot etadi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temurning teran aql-zakovati va puxta ishlangan harbiy taktikalari ko‘plab janglarda muvaffaqiyat qozonishiga sababchi bo‘ldi. Shuningdek Amir Temur nafaqat buyuk harbiy lider, balki ajoyib diplomat va davlatchilik faoliyati bilan ham tanilgan. Uning zamonida davlatlar o‘rtasida do‘stona munosabatlar o‘rnatishga katta e‘tibor berilgan. Sohibqironning diplomatik qobiliyatlari va siyosiy ko‘rsatmalari uning xalqlar orasidagi tinchlik va barqarorlikka intilishini ko‘rsatadi.

Sohibqironning harbiy ta‘limoti bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Temurbekning harbiy mahorati, jahon harb san‘atidagi novatorligi Respublikamiz sarkardalarini ko‘z qorachig‘iday saqlash maqsadida barpo etilgan Milliy armiyamizning har bir a‘zosi uchun dasturilamal bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Якубовский А. Ю. Тимур... б. 70
2. Ибн Арабшох. Ажойиб ал-мавдур Фи тарихи Таймур (Темур тарихида такдир ажойиботлари). Т., 1992. II китоб, 99-100-бетлар.
3. Разин Е.А. История военного искусства. Т. II. М., 1957, С. 234.
4. Разин Е.А. История военного искусства. Т. II. М., 1957, С. 234.
5. Хамилулла Дадабоев. Аждодларимизнинг харбий махорати. Тошкент. 2016. Б.59
6. Гиясиддин Али... Дневник... -С.111.
7. Bo‘riboy Ahmedov. Amir Temur. B-547